

BADIY ADABIYOTDA TROPLARNI QO'LLASH SAN'ATI

Jumanazarova Kamola Ibrohim qizi

*Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti
Roman-german filologiyasi kafedrası stajor-o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada gap badiiy adabiyotda troplar hisoblanmish metafora va metonimiyani qo'llash haqida boradi. Xususan, bu boradagi muallifning mahorati, tarjima matnlaridagi o'ziga xosliklar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: lisoniy birlik, troplar, badiiy tasviriy vosita, ko'chma ma'no, markaziy figura, bo'yoqdorlik, badiiyat hodisasi

Ma'lumki, badiiy adabiyotni troplarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, zotan asarda aks ettirilgan voqealar bayoni o'quvchilarni o'ziga jalb qilishi va ko'z oldlarida ta'sirchan tarzda aks ettirilishi o'ta muhim sanaladi. Mazkur badiiy tasviriy vositalardan mohirona foydalangan holda asarni mazmunini ochib berish esa muallifdan o'ta ziyraklik va mahorat talab etadi.

Ko'chma ma'noda so'zlarni qo'llanishi, mazkur ma'noli so'zlar nutqni ta'sirchan qilishi borasida Aristotelning „Ritorika“ va Demetriyning „Uslub haqida“ asarlarida yoritilgan. Fransuz tadqiqotchilari tomonidan badiiy asarni ko'chimlarsiz tasavvur qilish qiyinligi haqida ta'kidlanadi. ¹“Chindan ham, ko'chma ma'nolar, u qaysi usuldagi ko'chim orqali yuzaga kelishidan qat'iy nazar, badiiy nutqqa emotsionallik, ekspressivlik, ta'sirchanlik, obrazlilik kabi muhim sifatlarni beradi. Bu sifatlarsiz esa badiiy asar tilining, demakki, badiiy asarning kitobxonga ta'siri yoki undagi badiiy maqsadning „yuqumliligi“ darajasi nechog'li bo'lishini isbotlab o'tirishning xojati yo'q. Har qanday badiiy nutq nazariyasida ko'chimlar markaziy figura sifatida qaraladi. Demak badiiy nutqda ko'chimlar yuzaga keltirilar ekan, mazkur ko'chimlarni tanlash, uning xalq madaniy-tarixiy tajribalariga, milliy dunyoqarashiga muvofiqligi benihoya muhimdir. Zotan, ko'chma ma'no ham ayni shu etalon vazifasidagi so'zda hosil bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy nutqda ko'chimlardan foydalanilganda ham yozuvchining bevosita til mahorati, avvalo ayni shu so'zni tanlashida yorqin namoyon bo'ladi”.

²“Badiiy asarda qo'llanilgan ko'chimlar ishlatilish darajasi, badiiy bo'yoqdorligi, ta'sirdorlik darajasi kabi jihatlaridan bir-biridan jiddiy farqlanadi:

a) ko'chimlarning bir qismi allaqachon til hodisasiga aylanib ulgurgan. Masalan, "kun botdi", "soat yuryapti" kabi birikmalarda so'z ma'nosi ko'chganligi aniq, biroq

¹ А.А. Реформатский. Введение в языковедение М1967, стр 77-80

² Л.А Булаховский Введение в языкознание. ч.н.м 1954 стр 57

biz ularga shu darajada ko`nikib ketganmizki, hozirda ularga ko`chim sifatida qaramaymiz ham. “Badiiy asar matnida mazkur ko`chimlar qo`llanganida, tabiiyki, muallif muayyan badiiy-estetik maqsad bilan semantik sathda og`ishga yo`l qo`ygan deya olmaymiz, zero, ular yozuvchi tomonidan (umumxalq tili bazasidan) tayyor holda olingan. Baski, bu xil ko`chimlar matnda estetik funksiya bajarmaydi, ularni badiiyat hodisasi sifatida talqin qilib bo`lmaydi;

b) asar matnida badiiy adabiyotda an'anaviy tarzda ishlatilib kelayotgan ko`chimlar ham ko`p uchraydi. Masalan, "shakar lab", "gul yuz", "bulbul", "sarv qomat", "qoshi kamon", "nargiz ko`z" va hokazo. Bu xil ko`chimlar ham yuqoridagilar singari tayyor holda (badiiy adabiyot namunalaridan) olinadi, biroq, ulardan farqli o`laroq, matnda estetik funksiya bajaradi: tasviriylikni, ifodaviylikni kuchaytiradi;

v) badiiy-estetik funksiyadorligi, tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirishi jihatidan muayyan matndagina ko`chma ma'noda qo`llangan, muallifning assotsiativ fikrlashi mahsuli o`laroq dunyoga kelgan ko`chimlar alohida o`rin tutadi. Ularni shartli ravishda "xususiy muallif ko`chmlari" deb atashimiz mumkin. Shu xildagi ko`chmlargina yozuvchining muayyan badiiy-estetik maqsadni ko`zlab yo`l qo`ygan semantik sathdagi og`ishi natijasidirki, uning badiiy til bobidagi mahorati xususida gap borganda biz, avvalo, shu xil ko`chmlarni e'tiborga olishimiz kerak bo`ladi”³.

“⁴Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko`rinmagan, biroq san'atkorona o`tkir nigoh bilan ilg`angan o`xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko`chimlar o`quvchini hayratga soladi, unga zavq bag`ishlaydi. Badiiy asarda eng ko`p qo`llanuvchi ko`chim turlaridan biri metaforadir. Metafora usulidagi ma'no ko`chishida narsa-hodisalar orasidagi o`xshashlikka asoslaniladi. Tabiatan, metaforani yashirin o`xshatish deb atash mumkin. Yashirin o`xshatish deb atalishiga sabab shuki, metaforada o`xshatilayotgan narsa nomi tushirib qoldirilgani holda, o`xshayotgan narsa nomi uning ma'nosini bildiradi. Tabiiyki, bunda o`xshatilayotgan narsalardan aynan o`xshashlik talab qilinmaydi, asos uchun ikki narsa-hodisaga xos belgilardan birortasi olinadi. Masalan, "oltin kuz", "oltin davr" birikmalarining birinchisida "rang", ikkinchisida "qimmat" asos uchun olingan. Keltirilgan misol metaforaning eng sodda ko`rinishlaridan bo`lib, quyida o`xshashlik aloqalari birmuncha murakkabroq namoyon bo`luvchi xususiy muallif metaforalaridan bir nechasini mushohada qilib ko`ramiz.

Rauf Parfining:

Suv ostida yaltiraydi tosh,

Xarsanglarda sinadi suvlar —

3.Abdulla Oripov “Ehtiyoj farzandi” T. “Yosh gvardiya” 1988 :108 bet

satrlarida metaforaning ma'nosi ikki bosqichda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, tilimizda tiniq, zilol suv ko'pincha oynaga o'xshatiladi. Ayni shu o'xshatish parchadagi metaforaning yuzaga chiqishiga asos (birinchi bosqich) bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri, matnda «suv — oyna» tarzidagi o'xshatish yo'q, lekin «Suv ostida yaltiraydi tosh» satri unga ochiq ishoradir, zero, tubdagi toshning yaltirashini ko'rish uchun suv oynadek tiniq bo'lishi shart. Demak, bu o'rinda shoir an'anaviy qo'llanuvchi «suv — oyna» o'xshatishiga tayanadi va shu asosda suvning xarsangga urilib parchalanishini oynaning sinishiga o'xshatadi (ikkinchi bosqich). Shoirning quyidagi:

Derazamga uriladi qor,

Jaranglaydi jarangsiz kumush,-

satrlarida metaforaning ma'no assotsiatsiyalari yanada kengroq. Ma'lumki, qorning kumushga (rang o'xshashligi) o'xshatilishi ancha keng qo'llanadi. Shoir shu asosda "kumush"ning yana bir assotsiatsiyasini uyg'otadi: qorning yog'ishini "kumush tangalarning sochilishi"ga o'xshatadiki (jaranglaydi jarangsiz kumush), go'yo kimdir xayr-ehson qilib tanga sochayotgandek. Xalqimizda "qor" yog'ishi to'kinlikdan, barakotdan deb bilinishi sizga ma'lum, albatta. Ko'ramizki, qor shoirning assotsiativ fikrlashida avvalo "kumush"ni, keyin xalqimizning maishiy tafakkurida muqim o'rinlashgan fikrni uyg'otadi. Demak, leksik metaforaning mazmuni bir so'z doirasida anglashilishi mumkin bo'lsa, matn ichidagi metaforaning ma'nosi matndagi boshqa so'zlar bilan aloqada oydinlashar ekan. Masalan, shoir X.Davron yozadi:

Eng dahshatli baqiriq — soqovning baqirig'i.

O', qanday kuch bilan baqirar qabrtoshlar...

⁵Albatta, bu o'rinda metaforaning ma'nosi turlicha tushunilishi, u o'quvchining ongida turlicha assotsiatsiyalarni uyg'otishi mumkinligi tabiiy. Parchadagi birinchi misra ikkinchisining anglanishiga asos bo'ladi. "Soqovning baqirig'i"dagi dahshatli jihat shuki, uni kamdan-kam odam eshitadi, eshita oladi. Shunga o'xshash, qabrtoshlar ham bizni juda ko'p narsalardan ogoh etadi, faqat ularning baqirig'ini biz doim ham "eshitolmaymiz". Baqirig'ini yonidagi odam eshitmayotganini bilib turgan soqovning holatini tasavvur qilasiz-da, bizni ogoh etib unsiz baqirayotgan qabrtoshlar, ular ortidagi o'tganlar ruhini tasavvur etasiz. Va ayni shu nuqtada she'r dilingizni titratadi, boshda tushunarsizdek ko'ringan satrlar qatidagi ma'no ongingizga o'chmas bo'lib muhrlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, badiiy adabiyotda mualliflar ko'chma ma'noli so'zlardan keng qo'llashgan. Bu esa asar saviyasini hamda ta'sirchanligini oshishiga katta hissa qo'shgan. Har qanday badiiy vositalar lisoniy vositalarni lingvistik nuqtai nazardan o'rganish juda zarurdir. Ayniqsa, metaforaga ham boshqa lingvistik hodisalar kabi sistemaviy yondashish, uning sistemaviy tabiatini ochish muhim vazifa sanaladi. Shunga ko'ra, metaforani faqat nutq bezagi emas, balki badiiy tafakkur mexanizmi

⁵ N.Sultanov "Adabiyot nazariyasi" Toshkent 1939 55-56 betlar

sifatida tushunilsa, to'g'ri bo'ladi. Chunki metafora shoirga o'z ichki olamini (tashqi olamga qiyosan) va tashqi olamni (ichki olamiga qiyosan) anglashga yordam beruvchi tengi yo'q vositadir.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kamroq uchraydi, o'zining estetik funksiyadorligi jihatidan ham u metaforadan quyiroq turadi. Shunday qilib, badiiy adabiyotdagi bunday yo'llar tufayli atrofdagi voqelik hodisalari yangi xususiyatlarga ega bo'lishi, g'ayrioddiy tomondan paydo bo'lishi, yanada yorqin va ifodali ko'rinishi mumkin. Bu esa albatta yozuvchining mahorati orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.А. Реформатский. Введение в языковедение М1967, стр 77-80
2. Л.А Булаховиский Введение в языкознание. ч.н.м 1954 стр 57
3. Abdulla Oripov "Ehtiyoj farzandi" T. "Yosh gvardiya" 1988 :108 bet
4. N.Sultanov "Adabiyot nazariyasi" Toshkent 1939 55-56 betlar